**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRINING**
**BUYRUG'I**

**2023 - yil «23» avgust 381-son** **Toshkent shahri**

**Vazirlik faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish hamda rasmiy veb-saytni yuritishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**

Vazirlik rasmiy veb-saytini yuritish va ochiqlik bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi hamda natijadorligini baholashga qaratilgan Ochiqlik indeksini joriy etishni ta'minlash maqsadida

**B U YU R A M A N:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'minlash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF–6247-son, 2022-yil 14-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PF–154-son farmonlari, Moliya vazirining 2021-yil 27-apreldagi "Byudjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" *(Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-mayda ro'yxatdan o'tgan, raqami 3299)* 26-son buyrug'i ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarga:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziriligi rasmiy veb-sayti, ijtimoiy tarmoq hamda messenjerlar faoliyatini tashkil etish va yuritishga **Axborot xizmatlari bo'limi**;

vazirlik rasmiy veb-sayti (yangilik sahifasidan tashqari) va Ochiq ma'lumotlar portali (data.egov.uz) uchun taqdim etilgan ma'lumotlarni o'z vaqtida joylashtirish va texnik qo'llab-quvvatlashga **Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi** mas'ulligi belgilab qo'yilsin.

3. Vazirlikning department, boshqarma, bo'lim va tizim tashkilotlari hamda hududdagi boshqarmalarga:

vazirlik rasmiy veb-saytiga ma'lumotlarni **taqdim etish va joylashtirishni** 1-ilovadagi sxema asosida amalga oshirish;

2-ilovada keltirilgan ro'yxat asosida ma'lumotlarni belgilangan mas'ullarnig **3 ta** ***(o'zbek, rus va ingliz)*** **tilda** doimiy ravishda taqdim etish va yangilab borishini nazotrat qilish;

3-ilovada keltirilgan ro'yxat asosida ma'lumotlarni belgilangan mas'ullar tomonidan ko'rsatilgan muddatlarda vazirlik **Axborot xizmatlari bo'limiga** taqdim etish;

4-ilovaga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF–6247-son farmoniga asosan vazirlik **sayti va Ochiq ma'lumotlar portaliga ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi** ijrosini ta'minlash;

5-ilovaga muvofiq Moliya vazirining 2021-yil 27-apreldagi "Byudjet jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlarni joylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" *(Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 27-mayda ro'yxatdan o'tgan, raqami 3299)* 26-son buyrug'iga asosan vazirlik **saytiga ma'lumotlarni joylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi** ijrosini bajarish vazifalari yuklansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF–154-son Farmoni bilan tasdiqlangan **Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini monitoring qilish va baholash bo'yicha metodika** vazirlikda ochiqlikni ta'minlash bo'yicha monitoring o'tkazish, sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligi va natijadorligini baholash orqali Ochiqlik indeksini hisoblash tartibini belgilaydi.

5. **Vazir kotibiyati** va **Axborot xizmatlari bo'limi** ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlarining o'z vaqtida bajarilishi ustidan nazoratga mas'ul etib belgilansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi PF–154-son Farmoniga asosan quyidagilar:

vazirlikda ochiqlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan xodimlar faoliyati samaradorligi mezonlari bo'yicha nazorat rejasi **6-ilovaga** muvofiq;

vazirlik rasmiy veb-saytida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko'rsatish mezonlari bo'yicha nazorat rejasi **7-ilovaga** muvofiq;

ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida e'lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimini yo'lga qo'yish mezonlari bo'yicha nazorat rejasi **8-ilovaga** muvofiq;

ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlarni joylashtirish mezonlari bo'yicha nazorat rejasi **9-ilovaga** muvofiq;

ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish mezonlari bo'yicha nazorat rejasi **10-ilovaga** muvofiq;

korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish mezonlari bo'yicha nazorat rejasi **11-ilovaga** muvofiq;

jamoatchilik kengashi faoliyati samaradorligi mezonlari bo'yicha nazorat rejasi **12-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

7. Ochiqlik indeksi indikatorlari bo'yicha ma'lumotlarning rasmiy saytda joylashtirilishi yuzasidan **"yashil"**, **"sariq"** va **"qizil"** sifatida baholanishiga 6–12-ilovalardagi bandlar ijrosi uchun ko'rsatilgan mas'ullar javobgar etib belgilansin.

8. Ochiqlik to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun mansabdor shaxslarga qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortilishiga sabab bo'lishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

9. **Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi** Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tavsiyasiga asosan vazirlik faoliyati "yashil" toifaga baholangan va bunga hissa qo'shgan mas'ul xodimlarni byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan bir yilda bir marta **bir oylik lavozim maoshining 50 foizi miqdorida** rag'batlantirish chorasini ko'rsin.

10. Mazkur buyruq bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining **2021-yil 30-iyundagi** nazorat rejasi, **2016-yil 16-martdagi 113-sonli, 2021-yil 10-dekabrdagi 516-sonli** hamda **2022-yil 14-iyuldagi 227-sonli** buyruqlari **o'z kuchini yo'qotgan** deb topilsin.

11. Mazkur buyruqning ijro nazorati vazirning birinchi o'rinbosari K.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir** **I.Abduraxmonov**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DEVONXONA

**NUSXA ASLIGA TO'G'RI**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2023-yil 23-08 dagi
381 -sonli buyrug'iga

1-ilova

# Oliy ta'lim, fan innovatsiyalar vazirligi rasmiy veb-saytiga ma'lumotlarni joylashtirish SXEMASI

| Bosqichlar | Ijrochilar | Tadbirlar | Bajarish muddati |
|---|---|---|---|
| 1-bosqich | Departament, boshqarma va bo'limlar, vazirlik tasarrufidagi tashkilot | Ma'lumotlarni 3 ta *(o'zbek, rus va ingliz)* tilda tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish | Uch ish kunida |
| 2-bosqich | Axborot xizmatlari bo'limi | Ma'lumotlarni tahrir qilish, foto va videolarni kerakli fomatga keltirgan holda Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazidan biriktirilgan mas'ulga yuborish | Bir ish kunida |
| 3-bosqich | Raqamli ta'lim texnologiya-larini rivojlantirish markazi | Ma'lumotlarni belgilangan formatda saytga joylashtirish (yangilik sahifasidan tashqari) | Bir ish kunida |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2023-yil 23-08-dagi
381 -sonli buyrug'iga

2-ilova

**Boshqarma va bo'limlardan veb-saytdagi ma'lumotlarni 3 ta (o'zbek, rus va ingliz) tilda doimiy ravishda yangilab borishga mas'ullar**
**RO'YXATI**

| № | Belgilangan mas'ul (I.Sh.) | | Boshqarma, bo'limlar nomi va lavozim |
|---|---|---|---|
| 1. | **Atabayeva Nozima** | – | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi bosh mutaxassisi |
| 2. | **Shoxruh Abdullayev, Jaloladdin Qurbanov, Behzod Ibrgimov** | – | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi bosh mutaxassislari |
| 3. | **Bobir Maxsudov** | – | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi bosh mutaxassisi |
| 4. | **Zafar Amirqulov** | – | Axborot xizmatlari bo'limi bosh mutaxassisi |
| 5. | **Gulrux Umarova** | – | Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi yetakchi mutaxassisi |
| 6. | **Mirshodjon Muhiddinov** | – | Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi bosh mutaxassisi |
| 7. | **Behruzjon Inoyatov** | – | Yuridik ta'minlash bo'limi bosh mutaxassisi |
| 8. | **Mirzayev Shohrux** | – | Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi bosh mutaxassisi |
| 9. | **Aripova Ziyoda** | – | Devonxona bosh mutaxassisi |
| 10. | **Muhayyo Qosimova** | – | Murojaatlar bo'limi yetakchi mutaxassisi |
| 11. | **Xurshid Mamatkulov** | – | Ta'lim sifatini nazorat qilish boshqarmasi bosh mutaxassisi |
| 12. | **Baxtiyor To'raqulov** | – | O'quv jarayonini tashkil etish va xorijiy tillarni o'qitishni tashkil etish bo'limi yetakchi mutaxassisi |
| 13. | **Shavkat Qurbonov** | – | Ta'lim tashkilotlarini litsenziyalash va faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi yetakchi mutaxassisi |
| 14. | **Umidjon Davitov** | – | Qabul jarayonlarini va akadem mobillikni tashkil etish bo'limi yetakchi mutaxassisi |

15. **Diyor Umarov** – Ta'lim muassasalari xalqaro va milliy ko'rsatkichlari samaradorligini baholash bo'limi boshlig'i

16. **Aziz Mamadaliyev** – Attestatsiya va akkreditatsiya bo'limi bosh mutaxassisi

17. **Abdurahmonov Axad** – Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'limi yetakchi mutaxassisi

18. **Sirojiddin Xusanov** – Moliyalashtirish bo'limi yetakchi mutaxassisi

19. **G'ulom Hakimov** – Texnik ta'minot va ekspluatatsiya bo'limi bosh mutaxassisi

20. **Ulug'bek Almardanov** – Investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'limi bosh mutaxassisi

21. **Misirov Akbarali** – Ichki audit boshqarmasi bosh mutaxassisi

22. **Quldoshev Javlonbek** – Professional ta'limni o'quv-me'yoriy va metodik muvofiqlashtirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

23. **Ixtiyor Hamidov** – Professional ta'lim integratsiyasi boshqarmasi bosh mutaxassisi

24. **Sanaqulov Salohiddin** – Yoshlar siyosati, ijtimoiy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar bo'limi bo'lim boshlig'i

25. **Gulrux Iskandarova** – Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi bosh mutaxassisi

26. **Sharofiddin Abdullayev** – Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi

27. **Javohir Ro'ziyev** – Xududiy bo'linmalar bilan ishlash boshqarmasi bosh mutaxassisi

28. **Shavkatov Javohir** – Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi

29. **Nosirov Xurshid** – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi yetakchi mutaxassisi

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2023-yil 23-08 dagi
387-sonli buyrug'iga
3-ilova

**Saytga ma'lumot taqdim etadigan department, boshqarma, bo'lim va tizim tashkilotlari**
**RO'YXATI**

| № | Saytga ma'lumot joylanadigan sahifa va bo'limlar nomi | Bajarish muddati | Boshqarma va bo'limdan belgilangan mas'ul |
|---|---|---|---|
| | **Bosh menyu** | | |
| 1. | Korporativ pochta | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi |
| 2. | Savol va javob | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har oyda)* | Barcha boshqarma va bo'limlar |
| 3. | Korrupsiyaga qarshi kurashish | Har chorakda | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi |
| 4. | Oliy ta'lim muassasalari ro'yxati | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti |
| 5. | Moliyaviy hujjatlar | Har chorakda | Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti,<br>Moliyalashtirish va rejalashtirish boshqarmasi,<br>Ichki audit boshqarmasi,<br>Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi,<br>Investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'limi |
| | **Abituriyentlarga:** | | |
| 6. | Ko'p beriladigan savollar<br>Qabul rejasi<br>Bakalavriatga qabul<br>Magistraturaga qabul<br>Ikkinchi ta'limga qabul<br>Sirtqi ta'limga qabul<br>Kechki ta'limga qabul<br>Masofaviy ta'lim<br>Maqsadli ta'limga qabul<br>Qo'shma ta'lim dasturlari<br>Tasdiqlangan til sertifikatlari ro'yxati<br>Xorijiy talabalar<br>Imtiyozlar<br>Test topshiriladigan fanlar majmuasi | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti,<br>Professional ta'lim ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti |
| | **O'qituvchilarga:** | | |
| 7. | Tanlov asosida ishga qabul qilish | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har chorakda)* | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi |
| 8. | Mehnatga haq to'lash | O'zgarganda<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 9. | Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish | Har chorakda | Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash bo'limi |
| | **Talabalarga:** | | |
| 10. | Talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish | O'zgarganda 3 ish kunida joylash *(nazorat har 6 oyda)* | Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti |
| 11. | Oliy ta'lim muassasalarida talabalar o'zlashtirishni baholash tizimi | O'zgarganda 3 ish kunida joylash *(nazorat har 6 oyda)* | Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti |
| 12. | Oliy ta'lim muassasalarida shartnoma asosida o'qitish qiymati | O'zgarganda 3 ish kunida joylash *(nazorat har 6 oyda)* | Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti |
| 13. | Ijtimoiy himoyadagi talabalarga imtiyozlar | O'zgarganda 3 ish kunida joylash *(nazorat har 6 oyda)* | Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti, Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi |
| 14. | Stipendiya, grant va tanlovlar | O'zgarganda 3 ish kunida joylash *(nazorat har 6 oyda)* | Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti, Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi, Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi |
| 15. | Bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi | O'zgarganda 3 ish kunida joylash *(nazorat har 6 oyda)* | Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti |
| 16. | Talabalar uchun tadbirlar | Doimiy *(nazorat har 6 oyda)* | Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi, Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi |
| 17. | So'rovnoma | Har chorakda | Barcha boshqarma va bo'limlar |
| | **Ta'lim tarmog'i:** | | |
| 18. | Akademik litsey | Doimiy *(nazorat har 6 oyda)* | Ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish boshqarmasi |
| 19. | Proffessional ta'lim | Doimiy *(nazorat har 6 oyda)* | Professional ta'lim ta'lim tizimini rivojlantirish departamenti |
| 20. | Oliy ta'lim | Doimiy *(nazorat har 6 oyda)* | Ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish, litsenziyalash, ta'lim sifatini ta'minlash departamenti |
| 21. | Ilmiy darajali kadrlar tayyorlash tizimi | Doimiy *(nazorat har 6 oyda)* | Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi |
| | **Interaktiv xizmatlar** | | |
| 22. | Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga murojaat | Doimiy *(nazorat har 6 oyda)* | Murojaatlar bo'limi |
| 23. | Davlat xizmatlari | Doimiy *(nazorat har 6 oyda)* | Yuridik ta'minlash bo'limi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 24. | Interaktiv davlat xizmatlari | Doimiy<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi |
| 25. | Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaati bilan ishlash | Doimiy<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Murojaatlar bo'limi |
| | **Vazirlik. Vazirlik haqida** | | |
| 26. | **Vazifalar** | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi,<br>Yuridik ta'minlash bo'limi |
| 27. | Ma'lumotlardan foydalanish | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Axborot xizmatlari bo'limi |
| 28. | Tashkiliy tuzilma | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi,<br>Yuridik ta'minlash bo'limi |
| 29. | Kengashlar | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Axborot xizmatlari bo'limi,<br>Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi,<br>Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi |
| 30. | Rahbariyat | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi |
| 31. | Markaziy apparat | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi |
| 32. | Tizim tashkilotlari | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Axborot xizmatlari bo'limi,<br>Tizim tashkilotlari |
| 33. | Hududiy boshqarmalar | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Hududiy bo'linmalar bilan ishlash boshqarmasi |
| 34. | Aloqalar | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Ishlar boshqaruvchisi |
| 35. | Murojaatlar bilan ishlash | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Murojaatlar bo'limi |
| 36. | Bo'sh ish o'rinlari | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi |
| 37. | So'rovlarni qabul qilish tartibi | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Devonxona |
| | **Vazirlik. Faoliyat** | | |
| 38. | Reja va tadbirlar | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi,<br>Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi |
| 39. | Ilmiy tadqiqot | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 40. | Xalqaro hamkorlik | O'zgarganda 3 ish kunida joylash *(nazorat har 6 oyda)* | Xalqaro hamkorlik va reytinglar boshqarmasi |
| 41. | Xalqaro reyting va indekslar | O'zgarganda 3 ish kunida joylash *(nazorat har 6 oyda)* | Ta'lim muassasalari xalqaro va milliy ko'rsatkichlari samaradorligini baholash bo'limi |
| 42. | Elektron hukumat | O'zgarganda 3 ish kunida joylash *(nazorat har 6 oyda)* | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi |
| 43. | Axborot kommunikatsiyalari texnologiyalari | O'zgarganda 3 ish kunida joylash *(nazorat har 6 oyda)* | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi |
| 44. | Tahlil va statistika | O'zgarganda 3 ish kunida joylash *(nazorat har 6 oyda)* | Barcha boshqarma va bo'limlar |
| 45. | Moliyaviy hujjatlar | Har chorakda | Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti, Moliyalashtirish va rejalashtirish boshqarmasi, Ichki audit boshqarmasi, Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi, Investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'limi |
| 46. | Investitsiya salohiyati | Har chorakda | Investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'limi |
| 47. | Gender tengligi | Har chorakda | Yoshlar siyosati va ma'naviy-tarbiyaviy ishlar boshqarmasi |
| 48. | Korrupsiyaga qarshi kurashish | Har chorakda | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi |
| 49. | Kadrlar siyosati | Har chorakda | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi |
| 50. | Davlat xususiy sheriklik | Har chorakda | Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'limi |
| 51. | Vazirlik hisobotlari | Har chorakda | Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi |
| 52. | Tanlovlar | Doimiy *(nazorat har chorakda)* | Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi, Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi, Yoshlar akademiyasi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi |
| 53. | Ta'lim tashkilotlarini litsenziyalash | Doimiy *(nazorat har chorakda)* | Ta'lim tashkilotlarini litsenziyalash va faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi |
| 54. | Attestatsiya va akkreditatsiya bo'limi | Doimiy *(nazorat har chorakda)* | Attestatsiya va akkreditatsiya bo'limi |
| 55. | Xalqaro va milliy sertifikatlar | Doimiy *(nazorat har chorakda)* | O'quv jarayonini tashkil etish va xorijiy tillarni o'qitishni tashkil etish bo'limi |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Vazirlik. Axborot xizmati** | | | |
| 56. | Yangiliklar<br>OAV ta'lim haqida<br>Ma'ruza, so'zga chiqish va asosiy fikrlar<br>Mediateka<br>Axborot xizmati bilan bog'lanish<br>Konferensiya va anjumanlar axborotnomasi<br>O'tkazilgan so'rov natijalari<br>OAVni akkredatsiya o'tkazish tartibi<br>Islohotlar oliy ta'lim muassasalari nigohida | Doimiy<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Axborot xizmatlari bo'limi |
| **Vazirlik. Normativ huquqiy hujjatlar** | | | |
| 57. | O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi | Har chorakda | Yuridik ta'minlash bo'limi |
| 58. | Farmon va qarorlar | | |
| 59. | Adliya vazirligidan ro'yxatidan o'tkazilgan normativ-huquqiy hujjatlar | | |
| 60. | Qonunlar | | |
| 61. | VM qarorlar | | |
| 62. | Kuchini yo'qotgan me'yoriy hujjatlar | | |
| 63. | Davlat dasturi | | |
| 64. | Qonunchilik targ'iboti | | |
| 65. | Vazirlik faoliyatiga doir tasdiqlangan dasturlar | | |
| 66. | Normativ-huquqiy hujjatlar loyihasi muhokamasi | | |
| 67. | Axborot tizimlari | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi |
| **Foydali havolalar** | | | |
| 68. | Qayta aloqa | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi |
| 69. | Ishonch telefoni | O'zgarganda<br>3 ish kunida joylash<br>*(nazorat har 6 oyda)* | Murojaatlar bo'limi |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2023-yil 23-08-dagi
381-sonli buyrug'iga
4-ilova

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF–6247-son farmoniga asosan vazirlik sayti va Ochiq ma'lumotlar portaliga ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni joylashtirish bo'yicha**

**CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| № | Farmonda belgilangan vazifalar mazmuni | Vazifalarni ijro qilish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **1-ilova 1-band.** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, vazirlik huzuridagi tashkilotlar, hududiy boshqarmalar va vazirlik tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari o'z faoliyatiga oid hisoboti (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno)ni rasmiy veb-saytlarda joylashtirib borish. | 1. Faoliyatga oid hisobotni tayyorlash.<br><br>2. Ma'lumotni veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish.<br><br>3. Vazirlik huzuridagi tashkilotlar, hududiy boshqarmalar va vazirlik tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga doir ma'lumotlarni o'zining rasmiy veb-saytiga joylashtirib borish. | har yili 1 martga qadar | Vazir kotibiyati *(Sh.Ergashev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)*<br><br>vazirlik huzuridagi tashkilot va hududiy boshqarmalar, vazirlik tasarrufidagi OTM va filiallar rahbarlari |
| 2. | **1-ilova 3-band.** Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan davlat xaridlarini amalga oshiruvchi shaxslar tomonidan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar bo'yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlarda joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Yakuniy ma'lumotlarni Ochiq ma'lumotlar portali va vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi *(Y.Pardayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 3. | **1-ilova 4-band.** Mansabdor shaxslarning xizmat safarlari va xorijdan tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olish xarajatlari (xizmat safarining yoki tashrifning maqsadi, sutkalik | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish. | har chorakda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi *(Y.Pardayev)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | pul, transport va yashash bilan bog'liq xarajatlar (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno))ni Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytlarda joylashtirib borish. | 2. Yakuniy ma'lumotlarni Ochiq ma'lumotlar portali va vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 4. | **1-ilova 5-band.** Davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobiga xarid qilinishi rejalashtirilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) to'g'risidagi ma'lumotlar (xarid e'lon qilinishidan kamida 6 oy oldin)ni rasmiy veb-saytlarda joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | doimiy ravishda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi *(Y.Pardayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 5. | **1-ilova 6-band.** Davlat xaridlari va investitsiya loyihalari doirasida hamda ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlarni berish bo'yicha tashkil etiladigan xarid komissiyalarining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan:<br>xarid komissiyasi tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror;<br>xarid komissiyasi a'zolarining ma'lumotlari (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi)ni rasmiy veb-saytlarda joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | doimiy ravishda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi *(Y.Pardayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 6. | **1-ilova 14-band.** Tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi bilan bir qatorda, uning ijrosi, shu jumladan obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash ishlari, avtomototransport vositalarini sotib olish va saqlash xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni rasmiy veb-saytlarda joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi *(Y.Pardayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 7. | **1-ilova 15-band.** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligidagi xizmat | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish. | har chorakda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi *(Y.Pardayev),* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | avtomototransport vositalari, xizmat uylari va boshqa ko'chmas mulklar to'g'risidagi ma'lumotlar (tezkor-qidiruv, harbiy va boshqa maxsus xizmatlarda foydalaniladigan ashyolar bundan mustasno)ni Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytda joylashtirib borish. | 2. Yakuniy ma'lumotlarni Ochiq ma'lumotlar portali va vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | | Ishlar boshqaruvchisi *(A.Tulanov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),*<br>Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 8. | **1-ilova 22-band.** Vazirlik tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalarining daromadlari, xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni Ochiq ma'lumotlar portali, rasmiy veb-saytda joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Yakuniy ma'lumotlarni Ochiq ma'lumotlar portali va vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi *(Y.Pardayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),*<br>Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 9. | **1-ilova 29-band.** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi haqidagi ma'lumot, shu jumladan:<br>jamoatchilik kengashining tasdiqlangan a'zolari haqidagi ma'lumotlar bilan bir qatorda ularning aloqa ma'lumotlari (telefon, pochta va elektron manzillari);<br>jamoatchilik kengashining yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar to'g'risidagi ma'lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*<br><br>Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 10. | **1-ilova 30-band.** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tasdiqlangan yarim yillik va (yoki) yillik ish rejalari (davlat sirlari va xizmatda foydalanish uchun mo'ljallangan ma'lumotlar bundan mustasno) to'g'risidagi ma'lumotlarni rasmiy veb-saytlarda joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har yarim yillikda *(har yili)* | Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi *(A.Yakubov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),*<br>Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 11. | **1-ilova 31-band.** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga doimiy foydalanish uchun berilgan yer maydonlari va boshqa mol-mulklarni davlat-xususiy sheriklik asosida olgan yuridik va jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni rasmiy veb-saytlarda joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'limi *(D.Yusupov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 12. | **1-ilova 32-band.** Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tashqi yoki ishonchli boshqaruvga berilgan davlat ulushi mavjud bo'lgan xo'jalik jamiyatlari, ishonchli boshqaruvchi tomonidan jalb qilingan to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlarni vazirlikning rasmiy veb-saytida joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti *(B.Oxunov), Investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'limi (B.Mirkasimov),* Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi *(Y.Pardayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 13. | **1-ilova 34-band.** Vazirlik tarkibiga kiruvchi davlat muassasalarining nomi, faoliyat turi, funksiya va vakolatlari hamda rahbarlari to'g'risidagi ma'lumotlar. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi *(Sh.Hamidov),* Yuridik ta'minlash bo'limi *(A.Qo'chqorov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 14. | **<u>1-ilova 35-band.</u>** Davlat budjeti, shuningdek, xalqaro moliya institutlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalar, shu jumladan istiqbolli investitsiya va infratuzilma loyihalari bo'yicha ularning asosiy texnik ko'rsatkichlari va boshqa loyiha hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlar. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har yarim yillikda | Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti *(B.Oxunov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),*<br>Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2023-yil 23-08-dagi
381-sonli buyrug'iga
5-ilova

**Moliya vazirining 2021-yil 27-apreldagi (Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 7-mayda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3299) 26-son buyrug'iga asosan vazirlik saytiga ma'lumotlarni joylashtirish bo'yicha**
**CHORA-TADBIRLAR REJASI**

| № | Farmonda belgilangan vazifalar mazmuni | Vazifalarni ijro qilish mexanizmi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1. | **Nizomning 3.b-bandi.**<br>Qonunchilik hujjatlariga muvofiq quyidagi shakllardagi davriy moliyaviy hisobotlar:<br>1. balans;<br>2. xarajatlar smetasining ijrosi haqidagi hisobot;<br>3. budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari bo'yicha pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot;<br>4. Davlat budjeti va budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan mavjud debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumot;<br>5. davlat maqsadli jamg'armalarining hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasining daromadlari hamda xarajatlari ijrosi haqidagi ma'lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi<br>*(Y.Pardayev)*<br><br>Axborot xizmati<br>*(N.Abduqunduzova)* |
| 2. | **Nizom 3.b-bandining 7-xatboshisi.**<br>Byudjet tashkilotlarining tarmoq, shtatlar va kontingentlar rejalarining bajarilishi to'g'risidagi hisobotni rasmiy veb-saytga joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma'lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti<br>*(B.Oxunov),*<br>*Moliyalashtirish va rejalashtirish boshqarmasi*<br>*(M.Hamrayev)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 3. | **<u>1-ilova.</u>** Budjetdan ajratilgan mablag‘larning chegaralangan miqdorining o‘z tasarrufidagi budjet tashkilotlari kesimida taqsimoti to‘g‘risidagi ma’lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma’lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma’lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti *(B.Oxunov), Moliyalashtirish va rejalashtirish boshqarmasi (M.Hamrayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 4. | **<u>2-ilova.</u>** Kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirib borish | 1. Tegishli ma’lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma’lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti *(B.Oxunov), Investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘limi (B.Mirkasimov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 5. | **<u>3-ilova.</u>** O‘tkazilgan tanlovlar (tenderlar) va amalga oshirilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirib borish | 1. Tegishli ma’lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma’lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi *(Y.Pardayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 6. | **<u>4-ilova.</u>** Asosiy vositalar xarid qilish uchun o‘tkazilgan tanlovlar (tenderlar) va amalga oshirilgan davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirib borish | 1. Tegishli ma’lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma’lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi *(Y.Pardayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 7. | **<u>5-ilova.</u>** Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar xarid qilish uchun o‘tkazilgan tanlovlar (tenderlar) va amalga oshirilgan | 1. Tegishli ma’lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish. | doimiy ravishda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi *(Y.Pardayev)* |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | davlat xaridlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirib borish. | 2. Ma’lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| **8.** | **<u>6-ilova.</u>** Qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tanlovlar (tenderlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni rasmiy veb-saytga joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma’lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma’lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | doimiy ravishda | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi *(Y.Pardayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| **9.** | **<u>7-ilova.</u>** Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlarining ijro etilishi to‘g‘risidagi ma’lumotni rasmiy veb-saytga joylashtirib borish. | 1. Tegishli ma’lumotlarni tayyorlash va Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Ma’lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytiga joylashtirishni tashkil qilish. | har chorakda | Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti *(B.Oxunov), Investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo‘limi (B.Mirkasimov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil 23-08 dagi 381-sonli
buyrug'iga 6-ilova

**Vazirlikda ochiqlikni ta'minlashga mas'ul bo'lgan xodimlar faoliyati samaradorligi mezonlari bo'yicha**
**NAZORAT REJA**

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, taqdimotlar hamda boshqa tadbirlar soni. | 1. 6 va undan ortiq matbuot anjumanlari, brifinglar, press-turlar, taqdimotlar hamda boshqa tadbirlar tashkil qilish va o'tkazish.<br><br>2. O'tkazilgan tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni vazirlikning rasmiy veb-saytida joylashtirish. | Yil davomida<br><br>Tadbirdan so'ng 2 kun muddatda | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, masalaga aloqador departament, boshqarma |
| 2 | Ijtimoiy tarmoqlarda onlayn translyatsiyalar soni. | Vazirlik faoliyatiga doir o'tkaziladigan kamida 6 va undan ortiq tadbirlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn translyatsiyalar qilinishini ta'minlash. | Yil davomida | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 3 | Matbuot anjumanlari, brifinglar va boshqa tadbirlarda rahbarlarning ishtiroki. | O'tkaziladigan matbuot anjumanlari, brifinglar va boshqa tadbirlarda vazirlik rahbarlari ishtirokini tashkillashtirish va ta'minlash. | Doimiy | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 4 | Axborot yetkazib berish shakli. | Ijtimoiy tarmoqlarda joylashtirish uchun har oyda kamida bir marta ma'lumotlarni infografika tarzida tayyorlash va e'lon qilinishini ta'minlash. | Har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 5 | Axborotning qamrovi. | Vazirlik faoliyatiga doir o'tkazilgan tadbirlar va yangiliklarni radio, televidenie, gazeta, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar va vazirlik rasmiy veb-saytida e'lon qilinishini ta'minlash. | Har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 6 | Sohaga oid muammolarni yoritish. | Sohaga oid muammolarni birinchi manba sifatida vazirlikning rasmiy veb-saytida yoritish. | Doimiy | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 7 | Tanqidiy materiallarga munosabat bildirishning tezkorligi. | Ijtimoiy tarmoqlarda sohaga oid tanqidiy materiallar e'lon qilingan vaqtdan boshlab 5 soat ichida munosabat bildirish. | Doimiy | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, masalaga aloqador departament, boshqarma |
| 8 | Tadbirlar haqidagi axborotlarning rasmiy veb-sayt, messenjer va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinishi tezkorligi. | O'tkazilgan tadbirlar haqida rasmiy veb-sayt, messenjer va ijtimoiy tarmoqlarda tadbir yakunlangandan keyin 1 soat ichida axborot e'lon qilish. | Doimiy | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 9 | Rahbar yoki axborot xizmati rahbarining muayyan axborot voqeligi munosabati bilan rasmiy bayonot berishi. | Muayyan axborot voqeligi munosabati bilan video formatda *(ayrim hollarda matn shaklida)* rasmiy bayonot berish. | Doimiy | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 10 | Xorijiy ommaviy axborot vositalarida materiallar e'lon qilinishi. | Vazirlik faoliyati haqida xorijiy ommaviy axborot vositalarida materiallar e'lon qilish. | Har yarim yil yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, masalaga aloqador departament, boshqarma, bo'lim |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil 23 - 08 dagi 288 -son
buyrug'iga 7-ilova

**Vazirlik rasmiy veb-saytida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko'rsatish mezonlari bo'yicha**
**NAZORAT REJA**

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Tashkilot faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni e'lon qilish darajasi. | 1. Vazirlik faoliyatiga taalluqli bo'lgan (huquqiy maqomi, shu jumladan tarkibiy bo'linmalar va idoraviy mansub tashkilotlarning tashkiliy tuzilmasi, vazifa va funksiyalarini belgilaydigan) normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni vazirlik rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Hujjat qabul qilingan kundan boshlab 4 kun muddatda<br><br>Hujjat qabul qilingan kundan boshlab 6 kun muddatda | Yuridik ta'minlash bo'limi *(A.Qo'chqorov)*, Moliya-iqtisodiyot va investitsiyalar departamenti *(B.Oxunov)* *Moliyalashtirish va rejalashtirish boshqarmasi (M.Hamrayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 2 | Ichki idoraviy hujjatlarni e'lon qilish darajasi | 1. Sohada qabul qilingan normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar, shu jumladan tadbirkorlik sub'ektlari bilan o'zaro munosabatlarga oid masalalar, davlat xizmatlarini hamda xizmatlarning boshqa turlarini ko'rsatish tartibi, | Hujjat qabul qilingan kundan boshlab 3 kun muddatda | Yuridik ta'minlash bo'limi *(A.Qo'chqorov)*, |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | muddatlari va qiymatini tartibga soluvchi hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash hamda Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | <br><br><br>Hujjat qabul qilingan kundan boshlab 1 kun muddatda | masalaga aloqador departament, boshqarma, bo'lim<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 3 | O'z kuchini yo'qotgan normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi | 1. Sohada oldin qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash hamda Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Hujjat qabul qilingan kundan boshlab 3 kun muddatda<br><br>Hujjat qabul qilingan kundan boshlab 1 kun muddatda | Yuridik ta'minlash bo'limi *(A.Qo'chqorov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 4 | Tasdiqlangan dasturlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | 1. Tegishli departament, boshqarma hamda bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Hukumat tomonidan vazirlik faoliyati sohasida tasdiqlangan dasturlar va ularning ijrosi to'g'risidagi ma'lumotlarni Axborot xizmatiga taqdim etish. | Har oyda bir marta | Barcha departament, boshqarma, bo'lim<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | 2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Ma'lumot taqdim etilgandan so'ng 1 kun muddatda | rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 5 | Ommaviy tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | Vazirlik va uning huzuridagi markazlarida o'tkazilishi rejalashtirilgan ommaviy tadbirlar *(majlislar, yig'ilishlar, matbuot anjumanlari, seminarlar va brifinglar, davra suhbatlari, rasmiy tashriflar)* to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, kundalik faoliyat to'g'risidagi boshqa axborotlarni e'lon qilish. | Doimiy | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 6 | Bo'sh ish o'rinlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | 1. Vazirlikdagi bo'sh ish o'rinlari, ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo'yiladigan talablar va taqdim qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash hamda Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar<br><br>Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi *(Sh.Hamidov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 7 | Ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | 1. Sohada ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari bilan birga ularning ishlab chiqilishi va idoralararo kelishuvi, shuningdek, muhokamasi o'tkaziladigan elektron tizimlardagi *(portal, platforma)* havolasi haqidagi ma'lumotlarni *(loyihaning pasport ma'lumotlari)* tayyorlash hamda Axborot xizmatiga taqdim etish. | Portalda e'lon qilingan kunning o'zida | Yuridik ta'minlash bo'limi *(A.Qo'chqorov)*, masalaga aloqador departament, boshqarma, bo'lim<br><br>Axborot xizmati |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | 2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Bir kun ichida | *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 8 | Muvofiqlashtiruvchi va maslahat organlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | 1. Vazirlikda tashkil etilgan muvofiqlashtiruvchi va maslahat organlari *(komissiyalar, kengashlar, qo'mitalar va boshqalar)* to'g'risidagi ma'lumotlarni Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | O'zgartirish kiritish haqidagi qaror qabul qilingan kundan boshlab 1 hafta muddatda | Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi *(A.Yakubov)*, Ilm-fan va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi *(Sh. Otajonov)*, Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 9 | Davlat organlari va tashkilotlari hamda ularning hududiy tuzilmalari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | Vazirlik tuzilmasining sxematik tasviri, shu jumladan vazirlik huzuridagi markaz hamda hududiy boshqarmalari vazifalari va funksiyalarining tavsifi, hududiy boshqarma rahbarlarining familiyasi, ismi va otasining ismi hamda aloqa ma'lumotlari *(telefon raqami, pochta, elektron manzili va boshqalar)* to'g'risidagi ma'lumotlarni e'lon qilish va har chorakda bir marta yangilab borish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi *(Sh.Hamidov)*, Yuridik ta'minlash bo'limi *(A.Qo'chqorov)*, Axborot xizmati |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | | | *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 10 | Idoraviy bo'ysunuvdagi tashkilotlarning veb-saytida havolalar mavjudligi. | Vazirlik veb-saytida o'z tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari veb-saytlarining havolalarini joylashtirish. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 11 | Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar e'lon qilinishi. | 1. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi (rahbarning qabul kunlari, murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bo'linmasining telefon raqamlari, manzilli rekvizitlar *(pochta, elektron manzili va boshqalar)*, "Ishonch telefoni" raqami, kirish yo'llari, to'xtash joylari, jamoat transporti raqamlari va javob xatlarini olish usullari to'g'risidagi ma'lumotlarni Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Kirish yo'llari, to'xtash joylari, jamoat transporti raqamlari haqidagi ma'lumotlarni Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>3. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytida e'lon qilish. | Keltirilgan tartiblarda o'zgarish bo'lganda | Murojaatlar bo'limi *(D.Urunboyev )*<br><br>Ishlar boshqaruvchisi *(A.Tulanov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | | | markazi *(A.Abdullayev)* |
| 12 | Murojaatlarning umumlashtirilgan natijalarini e'lon qilib borish darajasi. | 1. Real vaqt rejimida murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqida umumlashtirilgan ma'lumotlarni *(umumiy ko'rib chiqilgan, shundan qanoatlantirilgan, tushuntirish berilgan, rad qilingan, taalluqliligi bo'yicha yuborilgan, anonim deb topilgan va ko'rib chiqilayotgan murojaatlar)* tayyorlash hamda Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytida e'lon qilish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar<br><br>Har oy yakuni bo'yicha keyingi oyning 6-sanasiga qadar | Murojaatlar bo'limi *(D.Urunboyev )*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 13 | Boshqa rasmiy veb-saytlar va Hukumat portaliga havolalarning mavjudligi. | Vazirlik veb-saytida internet tarmog'idagi o'ntadan kam bo'lmagan veb-sayt va O'zbekiston Respublikasining Hukumat portaliga havolalar joylashtirish. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev),* Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* |
| 14 | Dolzarb mavzularga oid ma'lumotlar to'plamining alohida bo'limga tizimlashtirilishi. | 1. Ijtimoiy ahamiyatga molik ochiq ma'lumotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish, ochiq budjet va elektron davlat xizmatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni alohida bo'limda joylashtirish bo'yicha texnik imkoniyatlar yaratish. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | 2. Yaratilgan bo'limda ma'lumotlarni joylashtirishni tashkil etish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, masalaga aloqador departament, boshqarma, bo'lim |
| 15 | Matbuot xizmati va veb-sayt uchun mas'ul bo'lgan xodimlar to'g'risidagi ma'lumotlarning mavjudligi. | Vazirlik rasmiy veb-saytida matbuot xizmati va unga axborotlarni joylashtirish hamda yangilash uchun javobgar xodimning aloqa ma'lumotlari *(familiyasi, ismi va otasining ismi, telefon, pochta va elektron manzillari)*ni joylashtirish. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 16 | Ma'lumotlarni boshqa tillarga sinxronlash funksiyalarining mavjudligi. | Vazirlik rasmiy veb-saytidagi barcha sahifalar va ularga joylashtirilgan ma'lumotlarni xorijiy tillarga *(rus va ingliz)* sinxron tarjima qilish funksiyasini joriy qilish *(zaruratga ko'ra, kundalik berib boriladigan xabar tarzidagi ma'lumotlar)*. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 18 | Jamoatchilik fikrini o'rganish vositalarining joriy etilganligi. | 1. Soha faoliyatiga tegishli masalalarni muhokama qilish maqsadida jamoatchilik fikrini o'rganish vositalarini *(onlayn-so'rovlar, bloglar, forumlar, onlayn-chat)* joriy etish.<br>2. Jamoatchilik fikrini o'rganish vositalarining natijalari to'g'risidagi hisobotlarni e'lon qilish. | Har chorakda<br><br>Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, masalaga aloqador departament, boshqarma, bo'lim |
| 19 | Veb-saytda ma'lumotlarni qidirishning soddalashtirilgan usullari mavjudligi. | Rasmiy veb-sayt xaritasi va iyerarxik strukturada foydalanuvchining joylashgan joyini aks ettirish imkoniyatini joriy qilish. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 20 | Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun veb-saytdan foydalanish qulayligi. | Imkoniyati cheklangan shaxslar uchun rasmiy veb-saytdan foydalanish uchun maxsus xizmatlar tashkil etish *(veb-saytdagi matnni tovush jo'rligida berish imkoniyati, audio va videomateriallarning matn yoki surdotarjima kuzatuvi).* | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 21 | Ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun veb-saytdan foydalanish qulayligi. | Ko'rish qobiliyati cheklangan shaxslar uchun veb-saytdan foydalanish uchun xizmatlar tashkil etish *(ko'rish qobiliyati zaiflashgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash, standart ranglarni muayyan foydalanuvchi ko'radigan ranglarga o'zgartirish imkonini beradigan rangli sozlamalardan foydalanish, shrift va interfeys elementlarini masshtablash).* | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 22 | Axborotlarning sanasini ko'rsatish tartibiga rioya qilinishi. | Rasmiy veb-saytga joylashtirilayotgan barcha axborot va ma'lumotlarning sanasi ko'rsatilishini ta'minlash. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 23 | "Onlayn maslahatchi" xizmatining tashkil etilganligi. | 1. Vazirlik faoliyatiga, shuningdek, rasmiy veb-saytga ma'lumotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlarini ko'rsatishga oid savollarga real vaqt rejimida javob olish imkonini beruvchi "Onlayn maslahatchi" xizmatini ishga tushirish.<br><br>2. Xizmat orqali yo'llangan savollarga javob berishga mas'ul xodimni belgilash. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil 23 - 08 dagi 388 -son
buyrug'iga 8-ilova

**Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida e'lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimini yo'lga qo'yish mezonlari bo'yicha**
**NAZORAT REJASI**

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqidagi ma'lumotlarni e'lon qilish. | Vazirlik faoliyatiga oid hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqidagi ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har yili 10-martga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 2 | Hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish holati. | Vazirlik faoliyatiga oid hisobotlarni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun matbuot anjumanlarini o'tkazish va rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har yili 1-aprelga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 3 | Tasdiqlangan ish rejalar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | 1. Departament, boshqarmalarining yarim yillik va yillik ish rejalarini muvofiqlashtirish hamda tasdiqlangan vazirlik ish rejalarini Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har yarim yil yakuni bilan keyingi oyning 20-sanasiga qadar | Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi *(A.Yakubov)*, masalaga aloqador departament, boshqarma, bo'lim<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 4 | Hisobot (hay'at) yig'ilishlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | O'tkazilgan hisobot *(hay'at)* yig'ilishlarining videoyozuv va bayonnomalarini rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Yil davomida | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Strategik rejalashtirish va metodologiya bo'limi |
| 5 | Davlat xaridlarini amalga oshirishga oid tartib-taomillar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | 1. Davlat xaridlarini amalga oshirish tartib-taomillarini belgilovchi ichki idoraviy hujjat hamda davlat xaridlariga oid shikoyatlarni ko'rib chiquvchi komissiya a'zolari to'g'risidagi ma'lumotlarni *(komissiya tarkibini tasdiqlash haqidagi qaror, xarid komissiyasi a'zolarining ma'lumotlari, shu jumladan familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi va egallab turgan lavozimi)* Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har yarim yilda bir marotaba<br><br>Har yarim yilda bir marotaba | Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi *(Y.Pardayev)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 6 | Ochiqlik sohasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | Har yili ochiqlik sohasidagi o'z faoliyatini takomillashtirish yoki ko'lamini kengaytirish bo'yicha 2 tadan kam bo'lmagan takliflar ishlab chiqib, rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har yili 20-fevralga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, masalaga aloqador departament, boshqarma, bo'lim |
| 7 | O'zini o'zi baholash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | Vazirlik va tasarrufdagi tarkibiy tarmoqlar, muassasa, korxona va tashkilotlar hamda quyi organlarda ochiqlikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligi va natijadorligini baholash tizimini joriy etish va yakuniy hisobotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har yili 20-fevralga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, masalaga aloqador departament, boshqarma, bo'lim |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 8 | Ochiqlik sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | Ochiqlikni ta'minlash haqidagi qonunchilik talablari buzilganligi yuzasidan shikoyat qilish mexanizmlarini *(tartibi)* ishlab chiqish, bu haqdagi ma'lumotlarni *(ushbu toifadagi shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun mas'ul shaxs biriktirilganligi, alohida aloqa kanallari, shu jumladan qayta aloqaning interaktiv yo'llari mavjudligi, murojaatni kollegial tartibda yoki rahbariyat darajasida ko'rib chiqish tartibi o'rnatilganligi)* rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Yuridik ta'minlash bo'limi *(A.Qo'chqorov)*, Axborot-tahlil va ijro intizomi bo'limi *(A.Yakubov)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 9 | Ochiqlikni ta'minlash sohasida qabul qilingan qonunchilik hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | Ochiqlik sohasidagi qonun va qonunosti hujjatlar, shu jumladan ichki idoraviy hujjatlarning boshqa tillardagi tarjimalarini *(rus va ingliz)* tayyorlash hamda Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markaziga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Hujjat rasmiy e'lon qilingan sanadan boshlab 5 kun muddatda<br><br>Hujjat rasmiy e'lon qilingan sanadan boshlab 6 kun muddatda | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*<br><br>Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 10 | Ochiqlikni ta'minlash bo'yicha onlayn so'rovnoma o'tkazish blokining tashkil etilganligi. | Aholini qiziqtirgan masalalar, shu jumladan ochiqlikni ta'minlash borasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan onlayn so'rovnoma o'tkazib borish. | Har yarim yilda bir marotaba | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* masalaga aloqador departament, boshqarma, bo'lim |
| 11 | Ochiq ma'lumotlar to'plamini pasportlash tartibining joriy etilganligi. | Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'plamini *(rasmiy veb-saytda)* bir xil identifikatsiya qilish | 2024-yilga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | imkonini beruvchi pasport ma'lumotlari *(to'plamning nomi, identifikatsiya raqami, tarkibi, mulkdori, tuplam uchun mas'ul shaxs, mas'ul shaxsning telefon raqami va elektron pochta manzili, to'plamning ochiq ma'lumotlar portalidagi manzili, formati, dastlab joylashtirilgan sanasi, oxirgi yangilangan sanasi, davriy yangilab borish muddati hamda kalit so'zlar)* asosida rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | | barcha departament, boshqarma, bo'lim, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 12 | Ochiq ma'lumotlar to'plami va qayta aloqa samaradorligini baholash tizimining joriy etilganligi. | Har bir ochiq ma'lumotlar to'plamining dolzarbligini baholash imkoniyatini *(to'plamni avtomatik baholash, so'rovlar yuborish, dolzarbligini oshirish yuzasidan takliflar qabul qilish, matn shaklida izoh qoldirish va to'plam ko'rib chiqilgan hamda ko'chirib olgan foydalanuvchilar soni)* yaratish | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)*, Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil 23-08 dagi 381-son
buyrug'iga 9-ilova

**Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlarni joylashtirish mezonlari bo'yicha**
**NAZORAT REJASI**

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlar to'plamining e'lon qilinishi. | Belgilangan ma'lumotlar to'plamini 100 foizlik ko'rsatkichda e'lon qilish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 2 | Ijtimoiy ahamiyatga molik ma'lumotlar to'plamining e'lon qilinishi. | Belgilangan ma'lumotlar to'plamini 100 foizlik ko'rsatkichda e'lon qilish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 3 | Geopozitsiyaga bog'langan ochiq ma'lumotlar to'plamining ulushi. | Belgilangan ma'lumotlar to'plamini 100 foizlik ko'rsatkichda bog'lash. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)*, Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 4 | Elektron hukumat yagona identifikatorlariga bog'langan ochiq ma'lumotlar soni. | Ma'lumotlarni 100 foizlik ko'rsatkichda bog'lash. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)*, Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 5 | Ochiq ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan mobil ilova. | Ochiq ma'lumotlar bo'yicha mobil ilova ishlab chiqish. | 2023-yil 5-dekabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil 28 - 08 -dagi 388 -son
buyrug'iga 10-ilova

## Ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish mezonlari bo'yicha
## NAZORAT REJASI

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Qayta aloqaning tashkil etilganligi. | Saytda qoldirilgan telefon raqam asosida "Ishonch telefoni" orqali qayta aloqaga chiqish imkonini yaratish, murojaatga javob qaytarish tizimini yo'lga qo'yish. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)*, Murojaatlar bo'limi *(D.Urunboyev)* |
| 2 | Murojaat yo'llashning interaktiv usullari tashkil etilganligi. | Murojaatni to'g'ridan to'g'ri veb-sayt yoki uning mobil versiyasi orqali yuborish, ko'rib chiqish jarayonini real vaqt rejimida kuzatib borish, shaxsning identifikatsiya ma'lumotlari asosida javob olish imkoniyatini joriy etish. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)*, Murojaatlar bo'limi *(D.Urunboyev)* |
| 3 | Foydalanuvchilar bilan kommunikatsiya tarmog'i orqali muloqot qilish tizimi yo'lga qo'yilganligi. | Foydalanuvchilar bilan kommunikatsiya tarmog'i orqali muloqot qilish uchun maxsus dasturiy ta'minot va uning mobil ilovasini ishlab chiqish. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil 23 - 08 dagi 388 -son
buyrug'iga 11-ilova

**Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish mezonlari bo'yicha**
**NAZORAT REJASI**

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga doir ichki idoraviy hujjatlarning ochiq e'lon qilinishi. | 1. Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishga doir idoraviy hujjatlarni *(korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish haqida nizom, odob-axloq qoidalari, korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyati, kontragentlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma, davlat xaridlarini o'tkazish to'g'risidagi nizom, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni barvaqt aniqlash va baholash uslubiyati, korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida ma'lumot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarni qabul qilish, ko'rib chiqish va qayta ishlash reglamenti, sohadagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish reglamenti)* Axborot xizmatiga taqdim etish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 4-sanasiga qadar | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi *(B.Maxsudov),* Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi *(Sh.Yakubov)* |
| | | 2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 2 | Korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan alohida aloqa kanallari to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | 1. Korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan alohida aloqa kanallari *(qisqa raqamli "ishonch telefoni", elektron pochta va boshqa elektron manzillar, telegram bot, platforma yoki boshqa maxsus dasturiy ta'minot)* haqidagi ma'lumotlarni Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 4-sanasiga qadar<br><br>Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi *(B.Maxsudov)*, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi *(Sh.Yakubov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 3 | Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda korrupsiyaviy holatlarning oldini olish tizimi joriy etilganligi. | 1. Bo'sh ish o'rinlari uchun nomzodlarni tanlash jarayonlarini jonli *(onlayn)* translyatsiya qilib borish.<br><br>2. Bo'sh ish o'rinlariga ishga qabul qilish va rotatsiya to'g'risidagi ma'lumotlarni rasmiy veb-sayt va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilish. | Belgilangan tartibda<br><br>Tegishli buyruqlar imzolangan kun | Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi *(Sh.Hamidov)*, Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 4 | Korrupsiyaga nisbatan murosasizlik munosabatini belgilovchi hujjatlarni e'lon qilish darajasi. | 1. Mehnat munosabatlariga oid hujjatlarda *(mehnat yoki jamoat shartnomasi)* korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish, korrupsiya holatlari haqida xabar bergan xodimlarni rag'batlantirish va ularni ta'qibga olmaslik kafolatini belgilovchi ichki idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish hamda Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi *(B.Maxsudov)*, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi *(Sh.Yakubov)* |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | | 2023-yil 5-noyabrga qadar | Axborot xizmati (*N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 5 | Manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining joriy etilganligi. | Aniqlangan har bir manfaatlar to'qnashuvi holatlariga nisbatan ichki idoraviy tekshiruv natijalari, qabul qilingan qaror va ularning oldini olish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar haqidagi ma'lumotlarni *(hisobot, axborot va boshqa)* tayyorlash hamda Axborot xizmatiga taqdim etish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 4-sanasiga qadar | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi *(B.Maxsudov),* Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi *(Sh.Yakubov)* |
| | | 2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Axborot xizmati (*N.Abduqunduzova),* Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 6 | Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish choralarini ko'rish va natijalari haqida hisobdorlik tizimi yo'lga qo'yilganligi. | 1. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar *(tahlillar va jamoatchilik so'rovlari, shu jumladan onlayn so'rovnoma va uning natijalari, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va minimallashtirish bo'yicha ko'rilgan choralar haqidagi hisobotlar (axborot), ichki idoraviy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertiza natijalari)* natijalarini tayyorlash hamda Axborot xizmatiga taqdim etish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 4-sanasiga qadar | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi *(B.Maxsudov),* Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi *(Sh.Yakubov)* |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| | | 2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 7 | Xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki tartib-taomillaridan xabardorligi hamda sohadagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarning e'lon qilinishi. | 1. Vazirlik xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tayyorlash va qayta tayyorlash, shu jumladan yangi ishga qabul qilingan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish bo'yicha joriy etilgan tizim, ishlab chiqilgan maxsus o'quv dasturlar, qo'llanma va boshqa hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash hamda Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | 2023-yil 5-dekabrga qadar<br><br>2023-yil 5-noyabrga qadar | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi *(B.Maxsudov)*, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi *(Sh.Yakubov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 8 | Keng jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari ishtirokida o'tkazilgan press-tadbirlarni *(matbuot anjumanlari, brifing, seminar, trening, davra suhbati, taqdimot, muhokama va boshqa tadbirlar)* e'lon qilish darajasi. | O'tkazilgan tadbirlarni infografika va video formatda e'lon qilish. | Tadbir o'tkazilgandan so'ng 2 kun muddatda | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 9 | Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida tayyorlangan targ'ibot materiallarini *(slayd, rolik, ma'ruza matnlari, maqola, buklet, risola va boshqalar)* e'lon qilish darajasi. | 1. Korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida targ'ibot materiallarini slayd, rolik, buklet va risola shaklida tayyorlash hamda Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 4-sanasiga qadar<br><br>Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi *(B.Maxsudov)*, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi *(Sh.Yakubov)*<br><br>Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*, Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023-yil 23 - 08 dagi 381 -son
buyrug'iga 12-ilova

**Jamoatchilik kengashining faoliyati samaradorligi mezonlari bo'yicha**
**NAZORAT REJASI**

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Rasmiy veb-saytda jamoatchilik kengashi haqidagi ma'lumotlarning joylashtirilishi. | 1. Respublika oliy ta'lim kengashiga bag'ishlangan alohida sahifa tashkil etilib, kengash faoliyati haqidagi *(kengash yig'ilishlari va kun tartibidagi masalalar, tasdiqlangan a'zolari ro'yxati, telefon raqami, pochta va elektron manzillari, ijtimoiy messenjerlardagi rasmiy sahifalari, davlat organi rahbarining davriy hisobotlari eshituvi hamda kengash faoliyati to'g'risida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan maqola va chiqishlarning yoritib borilishi)* ma'lumotlarni Axborot xizmatiga taqdim etish.<br><br>2. Taqdim etilgan ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda e'lon qilish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 4-sanasiga qadar<br><br>Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)*<br><br>Raqamli ta'lim texnologiyalarini rivojlantirish markazi *(A.Abdullayev)* |
| 2 | Jamoatchilik kengashining tashkiliy-huquqiy asoslari ishlab chiqilganligi hamda belgilangan tartibda e'lon qilinganligi. | Respublika oliy ta'lim kengashining tasdiqlangan nizomi, amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalar bo'yicha har yillik chora-tadbirlar rejasi va tasdiqlangan reja asosida o'tkazilishi kutilayotgan yig'ilishlar jadvalini e'lon qilib borish. | Har yili 20-fevralga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |

| T/r | Baholash mezonlari | Ijro mexanizmi | Ijro sanasi | Mas'ul ijrochilar |
|---|---|---|---|---|
| 3 | Jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirish bo'yicha belgilangan talablarning bajarilish darajasi. | Respublika oliy ta'lim kengashi tarkibini shakllantirishga oid talablarga *(tarkibning kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tashkil etishi va Jamoatchilik palatasi bilan kelishilganligi haqidagi ma'lumotlar kiritilgan davlat organi rahbarining qarori, a'zolarining soni 15 nafardan kam bo'lmasligi, tarkibida ishchi (ekspert) guruhlar tashkil etilganligi)* rioya etilishi va bu haqdagi ma'lumotlarni (hujjatlar) ochiq e'lon qilish. | Har yili 20-fevralga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |
| 4 | Jamoatchilik kengashining ochiqlikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat organi faoliyatini takomillashtirishdagi ishtiroki. | Kengashning ochiqlikni ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va davlat organi faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirgan chora-tadbirlar haqidagi *(ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik oldida hisobdorlikni ta'minlash, davlat dasturlari hamda boshqa hujjatlar bo'yicha berilgan vazifalarning ijrosiga oid hisobotlarni eshitish, xorijiy mamlakatlardagi analogik organlar tajribasi o'rganilib, ichki hujjatlar va faoliyatni takomillashtirish borasida takliflar ishlab chiqilganligi)* tahliliy ma'lumotlarni muntazam e'lon qilib borish. | Har chorak yakuni bo'yicha keyingi oyning 5-sanasiga qadar | Axborot xizmati *(N.Abduqunduzova)* |